

## **Tilshunoslik**

1. Tilshunoslik fani qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. Tafakkur birliklar qanday til birliklari vositasida ifodalanadi?
3. Qanday lingvistik uslublarni bilasiz?
4. Tilshunoslik qachon fan sifatida ajralib chiqdi?
5. Nutq tovushlari qaysi nuqtai nazardan tasniflanadi? Nutq tovushlari nimadan tashkil topadi?
6. Tafakkur birliklariga nimalar kiradi?
7. V. fon Gumboldt hamda F.de Sossyurning til sistemasi to'g'risidagi fikrlarini gapirib bering.
8. Istiora, metonimiya va sinekdoxa nima? Bu hodisalar tilning taraqqiyotida qanday o'rin egallaydi? Bu masalalar bilan tilning leksikologik yarusidan boshqa yana qaysi yarus shug'ullanadi?
9. Fonologiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi? Ularni fonetika o'rganadigan masalalar bilan qiyoslang. Fon va fonema orasidagi farqni tushuntiring.
10. Kishilar o'zaro fikrlashuv jarayonida qanday aloqa vositalaridan foydalanadilar?
11. Leksikologiyaning qanday bo'limlarini bilasiz?
12. Til ijtimoiy hodisa sifatida boshqa hodisalardan qanday farqqa ega?
13. Til oilasi va til guruhi deganda nima tushunasiz?
14. Nutq tovushlari qaysi nuqtai nazardan tasniflanadi? Nutq tovushlari nimadan tashkil topadi?
15. Til tabiiy hodisami yoki ijtimoiymi? Til va jamiyat o'rtasida bog'liqlikni asoslang. O'zingizni fikringiz.
16. Qarindosh tillarni aniqlash uchun qaysi uslub ishlatiladi? Bu uslub kimlar tomonidan yaratilgan? Tarixiy-qiyosiy uslub hozirgi zamon tilshunosligida ham ishlatilishi mumkinmi?
17. Alloma va tilshunoslar til bilan tafakkur masalasida qanday fikrlarni bildirganlar?

18. Undosh tovushlar unilardan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi? Undosh tovushlarni turlarga ajrating.
19. Milliy tilning shakllanishi qanday yo'llar bilan amalga oshadi? Substrat va superstrat hodisalari nima?
20. Fraza, takt, bo'g'in va nutq tovushini ta'riflang. Fraza va gap, takt va so'z birikmasi, bo'g'in va morf orasidagi farqlarni qayd eting. Enklitik va proklitik elementlar deganda nimani tushunamiz? Bo'g'inning turlarini misollarda ko'rsating. Bo'g'in bilan bog'liq qanday nazariyalarni bilasiz?
21. Til va boshqa aloqa vositalari o'rtasida o'xshashlik va farqni tushuntiring.
22. Til va uni tashkil etuvchi qatlamlar, yaruslar to'g'risida gapiring. Bu qatlamlarning til sistemasiga qanday aloqasi borligini tushuntiring.
23. So'z ma'nolarining kengayishi va torayishi sabablarini tushuntirib bering.
24. Qarindosh tillarni aniqlash uchun qaysi uslub ishlatiladi? Bu uslub kimlar tomonidan yaratilgan? Tarixiy-qiyosiy uslub hozirgi zamon tilshunosligida ham ishlatilishi mumkinmi?
25. Ona tilidan yoki birorta chet tilidan olingan misollarda «analiz» (tahlil) va «sintez» atamalarini tushuntiring.
26. Mikrolingvistika va makrolingvistika nima va u qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
27. Nima uchun til jamiyatdagina shakllanadi deb hisoblanadi? Bu fikrni isbotlovchi qanday dalillarni o'rgandingiz?
28. So'z ma'nolarining kengayishi va torayishi sabablarini tushuntirib bering.
29. Tilning leksikologiya yarusini qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
30. Qanday lingvistik uslublarni bilasiz?
31. Tafakkur birliklari qanday til birliklari vositasida ifodalanadi?
32. Qanday lingvistik uslublarni bilasiz?
33. Tilning leksikologiya yarusini qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
34. Til nima uchun sistema ?

35. Soʻzlar til birligi sifatida qanday vazifalarni bajaradi? Soʻzlar qanday maʼnolar anglatadi? Toʻgʻri va koʻchma maʼnolarni misollar yordamida tushuntirib bering.
36. Tilshunoslik fanining eng kadimiy taʼlimotlari va maktablari qaerda yuzaga keldi?
37. Xindistonda til masalalari bilan shugʻullanishga nima sabab boʻldi?
38. Yunon tilshunosligi taraqqiyoti nechta davrga boʻlinadi?
39. Tilshunoslikning falsafiy davrining oʻziga xos jihatlari nimada?
40. Analogistlar va anomalistlar kimlar?
41. Tilshunoslikning grammatik davrining oʻziga xos jihatlari nimadan iborat?
42. Rim tilshunosligi qaysi tilshunoslik maktabiga ergashdi?
43. Rim tilshunosligida kimlarning grammatikasi mukammal deb xisoblandi?
44. Tillarning hozirgi davrdagi qanday rivojlanish qonuniyatlarini bilasiz?
45. Tillar bir-biriga faqat leksik jihatdan taʼsir koʻrsatadimi yoki grammatik nuqtai nazardan ham taʼsir oʻtkazishi mumkinmi?
46. Chet ellarda va xususan AQShda sotsiolingvistika qanday masalalar bilan shugʻullanadi?
47. Sotsiolingvistik tipologiya qanday oʻlchovlar asosida tillarni turlarga ajratadi?
48. Standart, klassik, mahalliy, kreol, pijin, dialekt va sunʼiy tillarning bir-biridan farqini tushuntirib bering.
49. «Kognitiv» atamasining asosida qanday maʼno yotadi?
50. Kognitiv tilshunoslik qanday masalalar bilan shugʻullanadi?